

Ko'hna Buxoroning jo'shqin mavjlari

(3-bet)

«Ingliz tili bilimdonlari» intellektual musobaqasining Buxoro viloyat bosqichida G'ijduvon, Kogon, Romitan, Qorako'l, Qorovulbozor tumanlari hamda Buxoro shahar jamoalari faol ishtirok etishdi. G'ijduvon tumani jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, musobaqaning Respublika bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi.



Buxoro shahridagi 35-umumta'lim maktabining o'quvchilari gazetamizning har bir sonini katta qiziqish bilan kuzatib boradilar. Ayni chog'da, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishda ular tengdoshlariga ibrat bo'lmoqdalar.

(Davomi 3-betda)

Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI» gazetasiga
2017-YIL UCHUN OBUNA mavsumi davom etmoqda!
Siz maktab kutubxonasi yoki uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida obuna bo'lishingiz mumkin.

✓ Nashr ko'rsatkichi -198

N. SULTONOV olgan suratlar

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Bizga maktub yo'llabsiz...

TUHFA

Marg'ilon shahridagi 35-maktabgacha ta'lim muassasasi qayta qurilib, foydalanishga topshirildi.

12 ta guruh uchun mo'ljallangan xonalar, suzish havzasi, oshxona, tibbiyot xonalari qatorida har bir guruh uchun yozgi ayvonlar bunyod etildi.

Ushbu muassasada takomillashtirilgan «Bolajon» tayanch dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, maktabga tayyorlash, innovatsion usullardan foydalanish, pedagogik jamoada sog'lom muhitni shakllantirish, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash yuzasidan vazifalar belgilab olingan.


Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri

VATAN OLDIDAGI BURCH!

Vatan – bu kindik qonimiz to'kilgan makon. O'zi yashab turgan makonni qadrlashi, o'sib-ulg'aygan yurtiga bo'lgan mehr-muhabbati va sadoqati har bir insonning vatanparvarlik tuyg'ulari ifodasidir.

Ota-bobolarimiz poyqadam yetgan ro'yi zamin ona kabi muqaddasdir. Ota-onaning farzandidan birdan-bir umidi Vatanga, eliga nafi fegadigan inson bo'lib voyaga yetishidir. Biz yoshlar buni chuqur his qilmog'imiz lozim. Ota-onamiz, Vatanimiz bizga katta umid bog'lagan. Shunday ekan, biz yoshlar hozirdanoq mo'ljalni aniq olib, yurt, yaqinlarimiz oldidagi burchimizni bajarmog'imiz darkor. Zero, ertangi kun bizniki, marra bizniki!

Zuhra QURBONBOYEVA, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



GAZETAGA OBUNA BO'LING

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari. Men she'r va hikoyalar yozib turaman.

2016-yilda yozgan maqola va she'rlarimdan ayrimlari gazetada chop etildi. Men gazetada e'lon qilingan «Boyligni bolalikdan asrang!» tanlovda qatnashib, rag'batlantiruvchi o'rinlardan birini egalladim. Tahririyat a'zolari meni faxriy yorliq, kitob hamda turli sovg'alar bilan taqdirlashdi. Buning uchun ularga o'z minnatdorchiligimni bildirdim.

Men 2017-yil uchun sevimli «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldim. Sizlar ham obuna bo'linglar. Birgalikda o'qib, tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni olaylik!

Iqbolxon MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Yakkasariy tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

DIQQAT, TANLOV!!!

Respublika bolalar kutubxonasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi tomonidan 2016-yilning noyabr oyidan 2017-yilning fevral oyigacha «Jannat onalar oyog'i ostidadir» deb nomlangan rasmlar va she'rlar tanlovi o'tkaziladi.

Mazkur tanlovda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida gi umumta'lim maktablarining o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlov uchun qo'yiladigan talablar:

«Jannat onalar oyog'i ostidadir» mavzusidagi rasmlar va she'rlar tanloviga taqdim etilayotgan ijodiy ishda aks ettirilgan ona obrazi badiiy asar qahramoni bo'lishi shart;

ijodiy ishda ona obrazining ichki kechinmalari aks etishi kerak;

ijodiy ishda asardagi ona qahramoniga nisbatan muallifning shaxsiy munosabati tasvirlanishi lozim;

taqdim etilayotgan ijodiy ish qaysi asar asosida yaratilgani hamda muallifning to'liq manzili va o'qish joyi ko'rsatilishi kerak.

Tanlovda ishtirok etishni istagan o'quvchilar mavzuga doir o'z ijod namunalari www.kitob.uz saytiga yoki bolalar kutubxonasi@xtv.uz elektron manziliga yoki Respublika bolalar kutubxonasiga jo'natishlari mumkin.

Taqdim etilgan eng sara ijodiy ishlarning mualliflari g'olib deb topiladi. G'oliblar 8-mart – «Xalqaro xotin-qizlar kuni» arafasida taqdirlanadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy
tel: 0-(371)-236-79-70, 0-(371)-236-22-01



ISTE'DODLI

Shirina

Shirina hali yosh bo'lishiga qaramay, juda tirishqoq. U poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 1-«B» sinfida o'qiydi.

Bo'sh vaqtlarida Respublika «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazidagi to'garakka qatnaydi. Ustozi Nozima Sultonovadan gimnastika sir-asrorlarini o'rganish bilan birga, «Gulg'uncha» raqs guruhida milliy raqs harakatlarini qunt bilan o'zlashtirmoqda. Shirina «Buxoro-cha», «Xorazmcha», «Tanovor», «Toshkentlik go'zal» singari raqslarni zavqlanib ijro etadi. Zukko qiz pazandalikka ham juda qiziqadi. Ukasi Boburjonga she'r o'qish, ertak aytish, topishmoqlar topishni o'rgatadi. Shirina kelgusida egallaydigan kasbini allaqachon tanlab bo'lgan.

– Kelajakda dizayner bo'lmoqchiman, – deydi iste'dodli qiz.

Shirinaga o'ziga o'xshagan shirin orzular og'ushida ulg'ayib, kamol topishiga tilakdoshmiz.

Xosiyat HASANOVA




MEN O'QITUVCHI BO'LAMAN

Men bo'sh vaqtlarimda she'rlar yozishni yoqtiraman. Yozganlarimni ona tili va adabiyot fani ustozim Nodira opa Abdurahmonovaga ko'rsatib, kerakli maslahatlarni olaman.

Navoiy g'azallarini, Muhammad Yusuf she'rlarini ko'pini yoddan bilaman. O'zbek adiblaridan G'afur G'ulomning asarlarini sevib o'qiyman. Xalqona, sodda tilda yozilgan bu asarlarni o'qib, har bir obraz ko'z oldimda gavdalanaveradi. Yaqinda Jonatan Sviftning mashhur asarlaridan biri «Gulliverning sarguzashtlari» kitobini o'qib chiqdim. Adabiyotga bo'lgan ixlos meni kelajakda kim bo'lishimni ham belgilab berdi. Men ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lishni istayman.

Ozoda XO'JAYEVA, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 56-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



Biz an'anaga ko'ra, «Tong yulduzi» va «G'uncha» kunlarini o'tkazish maqsadida hamrohlarimiz bilan ko'hna va hamisha navqiron Buxoroga yo'l oldik. Soatiga 230 km. tezlikda borayotgan «Afrosiyob» tezyurar poyezdi go'yo bulutlar orasidan uchib borayotgandek edi. Ko'plab aziz avliyolar, ulug' allomalar mangu orom topgan betakror Buxoroga 3 soat-u 47 daqiqada yetib keldik. Bu haqiqiy mo'jiza edi.

Buxoroi sharifga kirib borganimizda esa tabiat shifokori bo'lmish Boboquyosh bor mehrini, zarrin nurini ko'proq shu muqaddas zaminga sochayotgandek edi, go'yo.

Bizga hamrohlik qilgan Buxoro viloyat xalq ta'limi boshqarmasining ma'naviy-axloqiy tarbiya va sport ishlari bo'yicha bosh mutaxassisi Shamshod Sa'dullayev boshchiligidagi viloyatdagi ko'plab umumta'lim maktablarida, viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida bo'lib, o'g'il-qizlarning bugungi kundagi yutuqlari, orzu va intilishlari xususida suhbatlashdik.

Kogon tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tomonidan amalga oshirilayotgan ibratli ishlarga guvoh bo'ldik. Jumladan, tuman hududida «O'quvchi» reydi o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan. Unda dars vaqti kompyuter klublarida o'yin o'ynayotgan o'quvchilar aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar ko'riladi. Shuningdek, dars vaqtida ko'chada bemaqsad yurgan o'quvchilarni ham deyarli uchratmaysiz. Sababi «Bozor» reydi muntazam ravishda olib boriladi.

Bu kabi reydlar viloyatning har bir tumanida yo'lga qo'yilgan. Maqsadimiz o'quvchilarimizni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, ularni o'zlari qiziqqan turli fan, sport to'garaklariga jalb qilishdir. Shu bilan birga, yoshlarni Vatanga muhabbat, ota-onaga, ustozlarga, do'stlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir, — deydi

KO'HNA BUXORONING JO'SHQIN MAVJLARI

Kogon tuman XTMF-MTTE bo'limi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalash sho'ba rahbari Muhayyo opa Jo'rayeva.

Bugungi kunda kogonlik o'quvchilar o'z yutuqlari bilan barchaga o'rnak. Jumladan, 1-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Asadbek Narziyev o'zbek jang san'ati bo'yicha nafaqat viloyatda, balki Respublikada ko'p bora g'oliblikni qo'lga kiritgan. Uning bugungi kungacha medallari soni 10 dan ortiq. Yoki Yusufbek Mustaqimov shaxmat bo'yicha viloyat chempioni. U o'zining yoshiga nisbatan kattalarni ham bemalol yengadi.

gapirdi. Mohichehra Rahimova 8-«A» sinfda a'lo baholarga o'qiydi. U «Bilimlar bellashuvi – 2016»da ingliz tili bo'yicha tumanda g'oliblikni qo'lga kiritgan. 7-«B»

«Prezident asarlarini o'rganamiz» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 13 ta tuman va shahardan 13 nafar o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, ulardan Buxoro



Tajribali pedagog, 35-umumta'lim maktabi rahbari Gulchehra Ravshanova bolalar nashrlarini shogirdlari davrasida kuzatib borishni yaxshi an'anaga aylantirgan.



maktablarining 5–7-sinf o'quvchilari o'rtasida «Baxtli bolaligim» mavzusida, 8–9-sinflar o'rtasida «Tinchlik eng oliy ne'mat, uning uchun kurashmoq kerak» 3 bosqichli insholar tanlovi o'tkazildi.

Tanlovning maktab bos-



Buxoro shahridagi 32-umumta'lim maktabida iqtidorli o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi.



2-umumta'lim maktabi o'quvchisi Madina Begiyeva kompyuter grafikasi va dizayniga qiziqadi.

6-«A» sinf o'quvchisi Feruzbek Rajabov haqida alohida to'xtalish joiz. U bir necha yillardan buyon o'zbek jang san'ati bilan shug'ullanib keladi. 2-darajali qora belbog' sohibi Feruzbek O'zbekiston chempioni.

— Ustozim Nodir aka Jumayevning aytishicha, yoshimni hisobga olmaganda, murabbiylik ham qilishim mumkin ekan, — deydi faxrlanib Feruzbek. — Orzum, xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritib, O'zbekiston bayrog'i eng balandda hilpirashini, madhiyamiz yangrashini juda-juda xohlayman.

Tumandagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchilarining ham yutuqlari hech bir maktab o'quvchilaridan kam emas. Masalan, 8-«B» sinf o'quvchisi Muxlisa Jabborova tarix fanidan «Bilimlar bellashuvi – 2016»da tumanda 97,5 ball olganini to'liqlanib



Alisher



Ruxshona

sinf o'quvchisi Shahnoza Azimova maktabi o'quvchisi Sevara Davronova 1-o'rinni, Respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi. Umumta'lim



Feruzbek

shahridagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sevara Davronova 1-o'rinni, Respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi. Umumta'lim

qichida 12854 nafar o'quvchilar ishtirok etdi. Viloyat bosqichida esa 5–7- sinflar yo'nalishida Jondor tumanidagi 41-umumta'lim maktabi o'quvchisi Setora Rustamova 1-o'ringa loyiq topildi. 8–9-sinflar yo'nalishida Buxoro tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi Laziza Boboxo'jayevaning inshosi 1-o'ringa munosib ko'rildi.

Bu kabi yutuqlarni viloyatning har bir maktabi misolida ko'plab keltirish mumkin. Bugun buxorolik o'quvchilar izlanishda, o'qib-o'rganishda. Shunday ekan, demak ularning yo'llari ravon, kelajagi porloqdir.

Feruz SOYIBJON qizi. O'z muxbirlarimiz olgan suratlar

Parts of speech

THE NUMERAL (Son)

Buyumning miqdori yoki tartibini bildirgan so'zlar sonlardir.

Sonlar sanoq sonlar (**Cardinal numbers**) va tartib sonlarga (**Ordinal numbers**) bo'linadi.

Sanoq sonlar shaxs yoki buyumlarning miqdorini bildirib **how many?** nechta? so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: **one, two, three** va hokazo.

Tartib sonlar predmetlarning tartibini bildiradi va **which? qaysi? nechanchi?** so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: **first – birinchi, second – ikkinchi, third – uchinchi** va hokazo.

Tartib son bilan kelgan otlar doim aniq artikl bilan ishlatiladi. Ot kelmaganda ham tartib sonning aniq artikli saqlanib qoladi:

February is the second month of the year.

Birinchi uchta sondan (**first, second, third**) boshqa barcha tartib sonlar sanoq sonlarga **-th** qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi: **fourth, sixth, seventh. Five** va **twelve** sonlaridagi **ve** harfi fga o'zgaradi – **fifth, twelfth**.

REPETITION (Takrorlash)

Remembering the adjective let's count and translate these words.



Your teacher DINORA

DURDONA'S GARDEN (Durdonaning bog'i)

Can you tell the names of five flowers?

Durdona loves flowers. Her favourites are daisies, tulips and daffodils. Tulips and daffodils come up every spring and daisies come up later in the summer. These plants live for a long time.

They come up year after year.

Durdona loves the spring because she can go to the flower market to buy her annuals. The annuals only last one season, but they add a lot of colour to the garden.



Dono AHMEDOVA

Painter: SUMBULA

PROVERBS ABOUT FRIENDSHIP (Do'stlik haqida maqollar)

1. Fish can't live without water,
People – without friend.
Baliq suvsiz yashamas,
Inson do'stsiz.

2. Tree with root,
People with friend.
Daraxt ildizi bilan,
Odam do'stlari bilan.

3. It is few if there is thousand friend,
Enemy is much if it's one.
Do'st ming bo'lsa ham oz,
Dushman bir bo'lsa ham ko'p.

4. Your friend is your wealth.
Do'sting – boyliging.

5. Head without friend,
As soup without salt.
Do'stsiz boshim-tuzsiz oshim.

6. Friendship is better than wealth.
Do'stlik barcha boylikdan afzal.

7. The sun heats air,
Friend – the heart.
Quyosh havoni isitar,
Do'st – qalbni.

8. Be confident with friend,
Be helper on his work.
Do'st bilan sirdosh bo'l,
Ishiga doim qo'ldosh bo'l.

9. Friend speaks bitter,
Enemy speaks laughable.
Do'st achitib gapirar,
Dushman kuldirib.

10. Tree is kept by tendon,
People by friend.
Daraxtni tomiri saqlar,
Odamni do'sti.

Sarvinoz NAZAROVA,
the pupil of lyceum under
Uzbek State World Languages University

CAUSE OR EFFECT? (Sababmi yoki natija?)

The cause is why something happened. The effect is what happened.

1. The sun was hot, so my ice cream melted. ← effect
2. Hosiyat bought a new dress, to wear her brother's wedding.
3. My brother didn't go to school yesterday, he was ill.
4. I went to Samarkand to see my grandmother.
5. Anvar learns English to go to London.
6. Salima bought a cake to celebrate her birthday with friends.

Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

Shoirning qaytishi

**O'zbekiston Xalq shoiri
Abdulla ORIPOV xotirasiga**

G'amlar qarimadi, eskirmadi dard,
Kechagi yaralar bitmadi hali.
Hali qaroqlardan to'kilmayin gard,
Ko'ksimizni tildi taqdir xanjari.

Xalqim, oh, naqadar og'ir zalvori –
Tag'in sizib kirdi bir sovuq xabar:
Olamni tark etdi Abdulla Orif,
Ummonlar ortida, bir majruh sahar.

Shu tun uxlatmadi she'r emas, alam,
Tumanlar bag'riga cho'kdim, zim-ziyo...
Qog'ozsiz bir qaro cho'pakdir qalam,
Shoirsiz aslida, g'aribdir dunyo.

Bo'g'zimga botadi kuzning nam isi,
Tilim botinolmas vido aytmoqqa.
Qit'alar oralab bir shoir jismi,
Ona tuprog'iga mangu qaytmoqqa.

O'rtanadi dilim, tark etar nahot,
Ko'z yoshlarga ko'nmas, azal qaro yer.
Alvido, alvido, ey tabarruk zot,
Vatanni ko'ksimga jo qilgan shoir!

Endi yulduz bo'lib chaqnar falakda,
Toki boshimizda panohdir osmon.
Yashaydi jam bo'lib har bir yurakda,
Abdulla Oripov va O'zbekiston!

Faxriddin HAYIT

Quyoshjon

Erta tongdan quyoshjon,
Saxiy nurin taratar.
Odamlarga jilmayib,
Fayzli kunni yaratar.



O'simliklar tillashib,
Quyosh mehriga qonar.
Daraxtlar olqishlashib,
Saharni kutib olar.

**Mirsaid MIRAHMEDOV,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tuma-
nidagi 256-umumta'lim maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi**



YOQUBBEK chizgan rasm

TUT

Hovlimizda katta tut,
Savlat to'kib turibdi.
Qarang, qushlar shoxiga,
Juda ko'p in quribdi.

Bahor kelsa tutimiz,
Shig'il meva soladi.
Yoqutday tovlanishib,
Ko'zingizni oladi.



Tutdan shirin murabbo,
Shinnilar tayyorlaymiz.
Daraxtimiz xizmatin,
Mana shunday oqlaymiz.

**Xurshidaxon AKBARQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi**

Kelajak egasi

Chalinib tez qo'ng'iroq,
Xonaga kirdi ustoz.
Biz bilan salomlashgach,
O'ylanib turdi biroz.

Jilmayib berdi savol:
– Kim kelajak egasi?
Ko'tarib darhol qo'lin,
Lola der: – Uy bekasi.

O'ylanib aytdi Anvar:
– Shifokor, usta, chevar...
Shoshilib dedi Sobir:
– Harbiydir vatansevar.

Birma-bir so'ngra ustoz,
Zimdan tashlab ko'zini.
Bizlarga kulib qo'yib,
Asta aytdi so'zini:



– Bilimga chanqoq bo'lgan,
Qora ko'z, qora qoshlar.
Kelajak egasi siz.
Ziyrak, hur, go'zal yoshlar.

Ustozning gapin tinglab,
Biz tezda shuni bildik.
Maktabda zo'r o'qishni,
O'zimizga ahd qildik.

**Mahliyoxon HOSHIMOVA,
Marg'ilon shahridagi 8-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi**



N. SHAVKATOVA chizgan rasmlar

MUSHTARIY SHER

(O'rmon hazili)

Qachonlardir hayvonlar,
Inoq bo'lgan zamonda.
Sher ismli pahlavon,
Yashar ekan o'rmonda.


Bir kuni u kirpining
Yonidan o'tib qoldi.
Qo'lidan «Tong yulduzi»,
Gazetasini oldi.

Shunda birdan qiziqib,
Oro kirib joniga.
Shoshildi u pochtagi
Qarg'a xola yoniga.

– Xola, xola, xolajon,
«Tong yulduzi» ber, – debdi.
Qarg'a: – Avval obuna
Bo'lg'in, ukam sher, – debdi.

«Tong yulduzi»ga sher ham
Har yil a'zo bo'larkan.
Har zamonda she'r yozib,
Xursand bo'lib yurarkan.

Azamat XUDOYBERGANOV



Qaysarning quyilishi

(Hikoya)

Qodir biroz dangasaroq bola. Darslarni o'zlashtirishi ham sust. Maktabdan borib, apiltapil ovqatlanadi-da, kompyuter xonaga qarab chopadi. Kompyuter o'yinlariga o'rganib qolgan. Afzal va Islom Qodirning mahalladoshi. Ular a'lochi o'quvchilar. Bugun ham Qodir darsdan chiqdi-yu ko'chada Afzal va Islomga duch keldi.

– Qayerga ketyapsan, mahalladosh? – so'radi Afzal kesatgannamo.

– U kompyuter do'stining oldiga ketyapti, – luqma tashladi Islom.

Ularning bu gapidan Qodirning jahli chiqdi. Zarda bilan:

yumushlarida yordamlashdi. Uydagilar avvaliga bu holdan hayron bo'lishdi.

Tez orada a'lo baholarga o'qiyotgan Qodirni ustozlari tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsata boshlashdi. U dars tayyorlashdan erinmas, kompyuter o'ynashni xayoliga ham keltirmasdi. Eng muhimi, to'g'ri yo'l ko'rsatgan do'stlaridan juda minnatdor edi.

**Dilshoda ABDUSALOMOVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumanidagi
20-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi**



BARKAMOL avlod EKATI

Maxsuda Sanayeva rahbarlik qilayotgan Sirdaryo viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazidagi to'garaklarda o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlari mazmunli o'tmoqda.

Har bir insonning o'ziga yarasha iqtidori, shu iqtidorni ro'yobga chiqarish, uni shakllantirish uchun joylarda to'garaklar faoliyat olib boradi.



Markazda o'tkaziladigan tadbirlarda har bir o'quvchi faol qatnashishni, tanlov sabab iqtidorini namoyish etishni istaydi. Jumladan, Guliston shahar 2-musiq va san'at maktabida o'tkazilgan «O'zbekiston – yagona Vatanim!» mavzusidagi foto, rasm va devoriy gazetalar ko'rik-tanlovida foto yo'nalishi bo'yicha 3-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Mohira Ne'matjonova, rasm yo'nalishi bo'yicha Guliston tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi, 14-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Mahliyo Abdusattorova, «Devoriy gazetalar» yo'nalishi bo'yicha Guliston shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi, 6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Farangiz Ro'zimetova 1-o'rinni qo'lga kiritdilar.

«Sog'lom ona va bola» yiliga bag'ishlangan «Barkamol avlod malikasi» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni Shirin shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi «Yosh tabiatshunos» to'garagi a'zosi Madina Hasanova qo'lga kiritdi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Bolalarning texnik ijodkorligi» viloyat festival-tanlovida «Avtomodel yo'nalishi» bo'yicha Oqoltin tuman 1-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi, «Barkamol avlod» bolalar markazi «Boshlang'ich texnik modellashtirish» to'garagi a'zosi Sunnatbek Abdurasulov, «Avia-raketa-model yo'nalishi» bo'yicha Sayxunobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi, «Barkamol avlod» bolalar markazi «Robototexnika va elektron o'yinchoqlar» to'garagi a'zosi Diyorbek Baxtiyov, «Barkamol avlod» bolalar markazi «Kompyuter grafikasi va dizayni» to'garagi a'zosi Muxlisa Hotamova 1-o'ringa munosib deb topildilar.

Eh-he, bunday tanlovlarda g'olib bo'lgan o'quvchilarni sanayversak, gazetamizning sahifalari ham yetmay qoladi. Tanlov tufayli bir-birlari bilan tajriba almashayotgan, do'stlar orttirayotgan sirdaryolik tengdoshlaringiz g'oliblar qatoridan joy olishayotgani bizni ham quvontirib yubordi. Ularning erishayotgan yutuqlari haqida esa yana to'xtalamiz.

Ozoda **TURSUNBOYEVA**

Shoda-shoda medallari yarashib turgan Sohiba Qozoqbovevaning sportga mehri bo'lakcha.

SPORT USTASI

Shu bois bo'lsa kerak, onasi Zebo opa qizini 10 yoshida-yoq Bahodir Sariyev rahbarlik qilayotgan karate sport klubiga olib bordi. Sohiba mashg'ulotlarga tezda kirishib ketdi va o'sha yilning o'zidayoq, ilk g'alabasini qo'lga kiritdi. Bugungacha ko'p karra O'zbekiston chempionligiga erishgan sportchi qiz bo'sh vaqtlarida rasm chizishni yoqtiradi. Hozirda u Xonqa pedagogika va sport kollejida tahsil olmoqda.



Dugonalari uning tirishqoqligi, ko'zlagan maqsadiga erishish yo'lida tinmay harakat qilishiga havas qiladi. Sohiba 2015-yil «Sport ustasi», 2016-yilda esa I dan qora belbog' sohibasi bo'ldi. Shu yilning avgust oyida esa bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan karate musobaqasida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini yana bir bor oqladi. Sportchi o'zining orzu-niyatlarini bayon qilar ekan, «Ezgu-intilishlarim zahirida ota-onam, yurtim sha'ni, qadr-qimmatini yotganini chuqur his qilaman», deydi. Uning bu e'tirofi qalblarni quvonchga to'ldirdi.

Aziza **AHMEDOVA**,
Xorazm viloyati, Xonqa tumani

SHOHJAHONGA OMAD YOR BO'LGAY

Salkam qirq yildan buyon jonajon maktabimda yoshlarga saboq berib kelaman. Bir paytlar o'zim o'qitgan sobiq o'quvchilarimning farzandlarini ham o'qitish baxtiga musharraf bo'lganimdan doimog'ururlanaman.

Eng quvonarlisi, a'lochi o'quvchilarimning bolalari ham ota-onalariga munosib bo'lib, ulardan-da faolliklarini ko'rganimda ko'nglim yayraydi.

Shohjahon Saidahmatov maskanimizning 2-«A» sinf o'quvchisi. Onasi Gulnoza ham bir paytlar qo'limga tahsil olgan. O'g'li yosh bo'lishiga qaramay, sportda erishayotgan yutuqlari bilan tengdoshlari qatori biz ustozlarni ham quvontirmoqda. O'z vaqtida nabirasidagi qiziqishni to'g'ri anglagan bobosi Zuhridin aka Temirov uni «Azamat-Karim» sport-sog'lomlashtirish markaziga olib bordi. Endigina to'rt yoshga to'lgan bolakayning sportchi akalariga qo'shilib, turli mashqlarni bajarishga harakat qilayotganini tomosha qilib o'tirgan bobosining o'sha paytdagi quvonchini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi.

Shohjahon besh yoshida klub birinchiligida kumite bo'yicha 3-o'rinni egallab, ilk g'alabani qo'lga kiritdi. Bu esa keyingi zafarlar sari narvon vazifasini o'taydi. «Humo-Osiyo» sport klubining ochiq turnirida esa 1-o'rinni egalladi. Uning bugungi kungacha erishgan yutuqlari talaygina.

Sinf rahbari Kibora Abilovanning shogirdidan umiddi katta. Ustozlar bilan bu sinfdagi ochiq darsga kirganimda, ataylab unga turli savollar beraman. Burro-burro javoblaridan esa zavqlanaman. Buvisi, Ko'ksaroy mahallasi faollaridan bo'lgan Jamila ayaning aytishicha, nabirasi

yaqinda o'tkaziladigan O'zbekiston kubogi bahslariga puxta hozirlik ko'rayotgan ekan.

Tajribali murabbiy Adham Ibragimov rahbarligida nufuzli musobaqaga jiddiy tayyorlangan yotgan

Shohjahonga omad tilaymiz.
Mohin OMAROVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



IMKONIYATLAR SAMARASI
Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida 468 nafar o'g'il-qiz boks, erkin kurash, taekvando (WTF), dzyudo, futbol kabi sportning 12 turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Yoshlar ixtiyorida sport zallari, futbol maydonida mashg'ulotlar uchun zarur sharoit yaratilgan.
Ushbu sa'y-harakatlar samarasi Mohinur Mo'minova, Olimjon Ochilidiyev, Shahnoza Normurodova, Sabrina Abdumurodova, Alpomish Bozorov singari yoshlarning nufuzli musobaqalarda erishayotgan yutuqlarida o'z ifodasini topmoqda. Joriy yili maktab tarbiyalanuvchilaridan 3 nafari kombat-aykido yo'nalishi bo'yicha Osiyo chempioni, 7 nafari kurash, 23 nafari belbog'li kurash bo'yicha mamlakat chempionatlari g'olibi bo'ldi.

Sh. **KAZAKBAYEV**

Nurulloh OSTON



Kitob haqida so'z ketganda, har birimiz hech bo'lmaganda o'zimizning bittadan sevimli kitobimiz borligi, uning ta'sirchanligi va qiziqarliligini o'ylab qolamiz. Bu esa o'z navbatida, bizni yana bebaho ne'mat – kitoblarni sevib o'qishga undaydi. Hurmatli o'quvchi, bugun sizlarga yangi nashrdan chiqqan kitoblarni havola qilayotganimizdan mamnunmiz. «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan mazkur kitoblar sizning kutubxonangizdan o'rin olsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.



«MITTIVOV VA KARLSON» (o'zbek tilida)

Astrid Lindgren qalamiga mansub «Mittivoy va Karlson» kitobining asosiy qahramonlaridan biri Karlson juda zamonaviy odam. Asar qahramoni bilan bog'liq voqea-hodisalarning hammasini qayerdadir ko'rganmiz, bir vaqtlar eshitganmiz, bu-larning barchasi bo'lib o'tgan voqea.

CHUCHMO'MAGA XAT



Tugab qoldi siyohim,
Endi qaydan olaman?
Sheriklardan siyohrang
Darrov izlab qolaman.
Topolmasdan qalamda
So'ng yozaman xushnoma:
– Menga jindek berib tur,
Siyohingdan Chuchmo'ma!

She'riyatga ixlosmand o'quvchilar! Nurulloh bobongizning hayvonot va nabotot olamiga oid satrlaridan juda ta'sirlangan bo'lsangiz kerak. Biz ijodkorning yaqinda «O'zbekiston» NMIU tomonidan chop etilgan «Chuchmo'maga xat» kitobidan bir chimdini ilindik, xolos. Bu kitobni topib mutolaa qilsangiz, bolalarning beg'ubor olamidan zavqqa to'lishingiz, shubhasiz.



Yusuf OG'A



UZUM

Shirin ingach uzumga,
Qushlar o'tdi hujumga.
Tiqma, deya tumshuqni,
Quvib turdim chumchuqni.
Qolsin dedim ishkonda,
Mayli, kelgin pishganda!

QIRQOYOQQA

Kelsang agar mehmonga,
Boshim yetar osmonga.
Chaqirmayman har kimni,
Lekin aytay shartimni:
Hamma uchun bir tartib,
Oyog'ingni kir artib.



«QAYTDIM YANA BOLALIKKA»

Bolalarning sevimli shoiri Habib Rahmatning «Qaytdim yana bolalikka» to'plamidan o'rin olgan she'rlarning mavzu doirasi juda ham rang-barang. Ularda ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, do'stlik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar tilga olingan. To'plamdagi she'riy hikoya hamda topishmoqlar esa siz aziz bolajonlarni ezgulikka chorlaydi, to'g'rilikka undaydi. O'ylaymizki, ushbu to'plam kitob javoningizdan munosib joy egallaydi.



Shavkat KAZAKBAYEV

«OYNAYI JAHON»

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

KROSSVORDI

Javoblarni shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida yozing.

1. Ekran san'ati.
2. Filmni suratga oluvchi mutaxassis.
3. Musobaqalar, bahslarni namoyish etishni amalga oshiruvchi kanal.
4. Televizorning tasvir ko'rsatuvchi qismi.
5. Ko'rsatuv haqida avvaldan berib boriladigan xabar, e'lon.
6. Faoliyatini 2014-yil 1-iyundan boshlagan respublikamiz telekanali.
7. Vatanimizda faoliyat olib borayotgan kanallardan biri.
8. Bolalarning sevimli satirik telejurnali.
9. «Yoshlar» telekanalining informatsion dasturi.
10. Aziz, mo'tabar diyor.
11. Kino namoyishidagi yozuv.
12. Voqea sodir bo'lgan joydan televideniya orqali zudlik bilan xabar yetkazish.
13. Tasvirlarni olish qurilmasi.
14. Matnlarni telekamera qarshisida o'qib eshittiruvchi xodim.
15. «Shum bola» filmidagi Qoravoyning do'sti.
16. O'zini tanitmaslik uchun kiyiladigan mo-

17. Musiqali ko'rsatuvlar kanali.
18. Televideniya ko'rsatuvida muntazam berib boriladigan informatsion dastur.
19. Suratga olingan ko'rsatuv parchalarini tanlab olib, mazmun va badiiy jihatdan bir butun holga keltirish jarayoni.
20. Ichki fotoeffekt yordamida obyektning optik tasvirini elektr signaliga aylantiruvchi televizion trubka.
21. Sahna asari janri.
22. Voqea, hodisa haqidagi mo'jaz ko'rsatuv.
23. Axborotni elektr signallar yordamida yetkazib berishni ta'minlovchi texnik qurilmalar majmui.
24. Tovushni kuchaytiruvchi asbob.

TOPSHIRIQ

Krossvord javoblari orqali shakl atrofidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) harflar bilan almashtirish bilan topshiriqni hal eting. Bunda ulardan dunyoda ilk bor televideniya tasvir amalga oshirilgan maskanni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV



8

21-noyabr 2016

Tong yulduzi

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilmiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25441
Buyurtma – S 7535

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08